

MUHAMMAD SHAYBONIYXONNING TARIXIMIZDAGI O'RNI

Qarshiyev Fazliddin <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Termiz davlat pedagogika instituti pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti 201- guruh talabasi

MAQOLA  
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:13.10.2024

Revised: 14.10.2024

Accepted:15.10.2024

Ushbu maqolada Muhammad Shayboniyxonning tariximizdagi eng muhim siyosiy shaxslardan biri ekanligi, buyuk davlat arbobi, qalami o'tkir shoir, qiro'atli mulla ( yoki qori) va tengsiz sarkarda sifatidagi o'rni ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Muhammad  
Shayboniyxon ibin  
Shohbudog' sulton,  
diniy siyosat,  
mustahkam iroda,  
manbalar, tarixiy  
asarlar.

**KIRISH.** Muhammad Shayboniyxon ibin Shohbudog' sulton ibn Abulxayrxon 1451-yilda Dashti qipchoqda tug'ulgan bo'lib o'z hayotining katta qismini davr taqazosiga ko'ra jangu jadallarda o'tkazgan bu shaxs tariximizdagi takrorlanmas siymolardan biri sifatida e'tirof etishga loyiqdir. Shayboniyxon o'zidan biz avlodlarga yuksak darajadagi did bilan yaratilgan she'riy devon, harbiy sohaga oid noyob bilimlarni qoldirgan, shuningdek uning „Bahr ul bido” nomli Muhammad Temur Sultonga atab yozilgan asari ham pand va nasihatnoma sifatida bugungi kun uchun ham juda muhim sanaladi. Shayboniyxon haqida umuman Shayboniyylar sulolasi haqida ma'lumot olishimiz mumkin bo'lgan manbalar qatoriga, Muhammad Solih va Kamoliddin Binoiyning Shayboniyynoma asari, o'zi asli Eronlik bo'lgan Fazlulloh ibn ro'zibehonning „ Mehmonnomayi Buxoro” asari, Mirzo Muhammad Haydarning „ Tarixi rashidiy kabi asarlarni kiritishimiz mumkin bundan tashqari Shayboniyxonning „Devoni” ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Shayboniyxonning o'zi turkiy til bilan bir qatorda arab va fors tilini ( ayniqsa

fors tilini g'azal yozish ma'nosida) mukammal darajada bilgan. Manbalarda Shayboniyxonning shunday jihati ham uchraydiki u Quron suralarining ayrimlarini yod bilgan va qiro'ati kuchli shaxs bo'lgan ( mening shaxsiy fikrim shundayki Muhammad Shayboniyxonga Movarounnahrda hokimiyatga osonlik bilan erishishida uning bu xislati katta yordam bergan, ya'ni u bu xislati orqali o'sha davrning eng ta'sirli, hatto hukumdorlarga ham o'z hukmini o'tkaza oladigan diniy peshvolar bilan o'rtasidagi munosabatlarni yaxshi saqlashda va ular orqali xalq ishonchini qozonishda muhim ahamiyat kasb etgan, chunki o'sha davr ijtimoiy hayotida odamlarni boshqarishda diniy idora vakillarining ro'li juda katta bo'lgan.) Aslini olganda Shayboniy hukmdorlarning dearli barchasi fan madaniyat homiylari sanalib juda ko'plab ilm ma'rifat egalariga o'z saroylaridan joy berib ijod qilishlariga sharoit yaratib berishgan. Bundan tashqari Ubaydullaxon turli taxalluslarda ( Ubaydullo, Ubaydiy, Qul Ubaydiy,) g'azal va ruboiylar bitgan ruboiynavislik taraqqiyotini Zahiriddin Muxammad Boburdan so'ng Ubaydullaxon rivojlantirgan. Ko'chkukchixon ibn Abulxayrxon ham o'z saroyida Sharafiddin Ali Yazdiyning,, Zafarnoma'' asarini, Rashididdinning,, Jome at tavorix '' asarini forschadan o'zbekchaga tarjima qildirgan. Aynan Shayboniylarning ushbu jihatlaridan ham ko'rinib turibdiki ular bir vaqtlari Turon zaminiga tig' o'xtalib kelgan mo'g'illardan anchayin farq qilgan holda iymon e'tiqodli va ilm ma'rifatli shaxslar bo'lishgan. Shayboniyxon o'zining jangni boshqarishdagi yoki urush taktikasini ishlab chiqishdagi qobiliyati bilan ham juda mashhur bo'lgan bo'lib, xususan u Temuriylarga qarshi bo'lgan janglarida ko'p bora,, To'lg'ama'' ni qo'llagan va bu ko'p hollarda ijobiy natijalar bergan, buning tipik misoli qilib aytishimiz mumkinki, Zahiriddin Muxammad Bobur o'sha mashhur „Panipat'' jangida Ibrohim Lo'dining 100 mingdan ortiq qo'shinini o'zining 12 ming askari bilan mag'lub etishiga jangni „To'lg'ama'' usulida olib borganligi sabab bo'lgan. Shayboniyxon Shayboniylar davlatida pul islohoti o'kazgan birinchi shaxs hisoblanadi va u o'z o'rnida oltin pul ham chiqargandir ( oz miqdorda albatta) aynan uning bu islohoti orqali mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti o'z o'rniga tusha boshlaydi. U ushbu siyosati orqali savdogarlar va hunarmandlar qatlamini o'z tarafiga o'tkazadi. Islohotga ko'ra yangi 5.2 gramlik kumush tanga zarb etildi va uning tarkibidagi misning miqdori normallashtirildi. O'z o'rnida aytish joizki u bu islohoti orqali davlat daromadlarining asosiy qismi bo'lgan dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirdi. Uning harbiy sohaga oid islohotlari zamirida esa qo'shin tarkibiga musiqchi suvchi, g'ajarchi, naqbechi, shotichi, Shotirlar, yurtchilar, ug'ruqchilar kabi turlari qo'shilgandi ( ularning ayrimlari Temuriylar davrida ham bo'lishgan) shuningdek qo'shinda to'fang bilan

---

qurollangan bo‘linma ham bo‘lib ularni tayyorlash, to‘fang va to‘pdan foydalanishni o‘rgatish uchun Usmonli davlati bilan shartnoma ham imzolangan va ularning soni Abdullaxon davrida 2000 ga yetgan. Qo‘shinning qishgi kiyim boshi tulki va suvsar mo‘ynalaridan iborat bo‘lgan. Shayboniyxonning qo‘shinida o‘zbeklar, turklar, tojiklar, arablar, forslar ham bo‘lishgan. Shayboniyxon o‘z qo‘shinida turli millat va elat vakillarini jamlay olgan hukumdor sifatida ham nom qozongan (bu xolat Amir Temur va uning ayrim avlodlari qo‘shinida ham kuzatilgan). Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham borki o‘sha davrda Shayboniyxon bilan zamondosh bo‘lgan Ismoil Safaviy O‘zi tuzgan Safaviylar davlatining asosiy diniy mazhabini „shia“ yo‘nalishi deb e‘lon qilganligi sababli Eron va uning ta‘siridagi ayrim hududlarning sunniy mazhab vakillari tobora kuchayib Safaviylarga ham tahdid solayotgan Shayboniyxonga qo‘shilish yuzasidan ham uning qo‘shiniga kirishni niyyat qilgan bo‘lishi mumkin. Mening fikrimga ko‘ra Shayboniyxon ham o‘zidan oldingi hukmdorlarning yo‘l qo‘ygan ikki hatosini takrorlagan, bular birinchisi: Mamlakatni suyurg‘ol tarzida i‘nom qilish ikkinchisi esa Davlat va harbiy mansablarga faqat aslzoda kishilarni olish (bu tartib kambag‘al oilalarning halol, insofli, bilimli farzandlarining iste‘dodidan davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalanishga imkon bermagan). Bu ikkisi o‘rta asr sharq dunyosining feodalizm botqog‘iga uzoq botib qolishi va kapitalistik munosabatlarga tezroq o‘tishiga imkon bermagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Buxoro xonligi tarixi. A. Zamonov. Toshkent 2021. Bayoz.
2. Shayboniyxonning siyosiy qiyofasiga doir chizgilar Abdusamad. Poyonov. Magistrlik dissertatsiyasi
3. Shayboniy davlati va huquqi. Ziyodulla Muqimov Adolat . Toshkent 2007.